



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
B U Y R U Q

2023-yil “ 05 ” sentabr

153 -son

Toshkent shahri

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi tizimi xodimlarining O‘zbekiston
Respublikasi tashqarisiga chiqish tartibini
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4079-sonli Qarori ijrosini ta‘minlash hamda xodimlarning O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga chiqishini tartibga solish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ayrim rahbarlik lavozimida ishlayotgan xodimlari ish beruvchining ruxsatini olmasdan yoki xabardor qilmasdan xorijga chiqib ketish holatlari kuzatilayotganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari hamda vazirlik tasarrufi (yoki huzurida)dagi tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

vazirlik nomenklaturasidagi davlat siri yoki harbiy sir bo‘lgan ma‘lumotlardan xabardor bo‘lgan xodimlarning xorijga chiqish biometrik pasportini **2023-yilning 10-sentyabriga qadar** vazirlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limiga taqdim etish;

bir oy muddatda davlat siri yoki harbiy sirga ega bo‘lgan, biroq xorijga chiqish biometrik pasportini olmagan xodimlar xorijga chiqish biometrik pasportini belgilangan tartibda olishi va **2023-yilning 10-oktabriga qadar** vazirlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limiga taqdim etishi;

xorijga xizmat safariga yuborilishi rejalashtirilayotgan rahbar-xodimlarni **kamida 14 kun oldin** belgilangan tartibda kelishish va viza hujjatlarini rasmiylashtirish uchun vazirlikning Xalqaro aloqalar va xalqaro hamkorlik boshqarmasi (K.Davlatov)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Xasanov), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (N. Kadirov), Birinchi bo'lim (Sh.Xodjayev) xorijga xizmat safariga yuborilayotgan yoki shaxsiy masalalar bo'yicha chiqayotgan xodimlar bilan tegishli tartibda profilaktik tadbirlarni amalga oshirib, belgilangan majburiyatlarni tushuntirsin.

4. Moddiy-texnik ta'minlash bo'limi (F.Azizov) **10 kun muddatda** Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limiga davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan maxfiy ma'lumotlardan xabardor bo'lgan xodimlarning xorijga chiqish biometrik pasportlarini saqlash uchun zarur bo'lgan maxsus moddiy-texnik anjomlar bilan ta'minlash choralari ko'rsin.

5. "Xodimlarning shaxsiy masalalar bo'yicha xorijga chiqishini kelishish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tashkiliy-nazorat boshqarmasi (M.To'rabekov):

o'rnatilgan tartibda mazkur buyruqni vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari va vazirlik tarkibidagi barcha muassasa va tashkilotlarga yetkazilishini;

ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan ichki idoraviy hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi ta'minlasin.

7. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (N. Kadirov) markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari rahbarlari, vazirlik tarkibidagi barcha muassasa va tashkilotlar rahbarlari bilan birgalikda:

ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilgan va kelgusida tuziladigan mehnat shartnomalariga qo'shimchalar kiritish choralari ko'rilishini;

tashkilot va muassasalarning Ichki tartib qoidalarini tegishli bandlar bilan to'ldirilishini;


xodimlarning shaxsiy masalalar bo'yicha xorijga chiqishini kelishishda Yo'riqnoma talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruq ijrosi ustidan nazoratni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



B. Musaev



**Xodimlarning shaxsiy masalalar bo'yicha xorijga
chiqishini kelishish tartibi to'g'risidagi
YO'RIQNOMA**

Mazkur Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi barcha tashkilot va muassasalar xodimlarining (keyingi o'rinlarda xodimlar) shaxsiy masalalar bo'yicha xorijga chiqishini kelishish tartibini, ularning majburiyatlarini va javobgarligini, bu borada mas'ul tuzilmalar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Xodimlarning shaxsiy masalalar bo'yicha xorijga chiqishi (keyingi o'rinlarda -xorijga chiqish) muddati (yo'ldagi vaqtni ham hisobga olganda) quyidagi davrlarning ichida bo'lishi shart:

mehnat ta'tili davri;

ish haqi (qisman) saqlangan va saqlanmagan holda beriladigan ta'til davri;

mehnatga layoqatsizlik davri;

dam olish, bayram (ishlanmaydigan) kunlari.

2-bob. Xorijga chiqishni kelishish

2. Xorijga chiqishni rejalashtirgan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi nomeklaturasiga kiruvchi, shuningdek vazir bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadigan barcha xodimlar umumiy holatlarda ish beruvchiga kamida 15 kun oldin, alohida holatlarda (shoshilinch davolanish, yaqin qarindoshlarning vafot etganligi sababli) ariza bilan kamida besh kun oldin murojaat qiladi.

3. Arizada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim:

familiyasi, ismi, otasining ismi;

ish joyi, tuzilmasi, egallab turgan lavozimi;

borilayotgan chet el davlatining nomi;

xorijga chiqishdan maqsadi;

davlat siri yoki harbiy sir bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishishga ruxsatnomasi mavjudligi;

xorijda bo'lish davri (yo'ldagi vaqtni ham hisobga olganda holda).

4. Xodimning xorijga chiqishi ushbu Yo'riqnoma talablari asosida ish beruvchi bilan kelishuvga ko'ra amalga oshiriladi.

5. Xorijga chiqishni kelishishga doir murojaatlar eng ko'pi bilan 5 kun muddatda ko'rib chiqilishi shart.

6. Xodimlarning xorijga chiqishi bo'yicha murojaatlar 5 kun muddatda quyidagi bosqichda ko'rib chiqiladi:

a) Birinchi bo'lim hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (bunday bo'linmalar bo'lmaganda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari) tomonidan 2 kun muddatda xodimning arizasiga xorijga chiqishi bo'yicha munosabat belgisi bilan imzolanadi;

b) Ish beruvchi (yoki vaqtincha ish beruvchi vazifasini bajaruvchi) xodimni xorijga chiqishi bo'yicha usti xat orqali munosabat bildiradi;

v) Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish tuzilmalari xodimga bir kun muddatda rahbariyat tomonidan xodimning xorijga chiqishi to'g'risidagi murojaati natijasi haqida ma'lum qilib, xodim bilan tegishli tartibda profilaktik tadbirlar amalga oshiradi hamda ushbu Yo'riqnomada belgilangan majburiyatlarni xodimga tushuntiradi.

7. Xodimga nisbatan xorijga chiqishiga to'sqinlik qiladigan holatlar yoki majburiyatlar amal qilayotgan bo'lsa, unga ushbu majburiyatlarning amal qilish muddati tamom bo'lgunga qadar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi tomonidan kechiktirib bo'lmaydigan topshiriqlar ijrosini ta'minlash vazifalari yakuniga yetkazilmagan bo'lsa xorijga chiqish rad etilishi mumkin.

8. Xorijga chiqishi rad etish asoslari oshkor qilinmasligi mumkin.

3-bob. Shaxsiy masalalar bo'yicha xorijga chiqqan xodimlarning majburiyatlari

9. Xorijiy davlatga borgan xodimlar:

borilgan mamlakat qonunchiligiga rioya qilishlari;

O'zbekiston Respublikasining davlat sirlarini tashkil etuvchi va xizmatga oid ma'lumotlarni oshkor etmasliklari;

O'zbekiston Respublikasi to'g'risida salbiy fikr tug'ilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan hamda qonunga zid xatti-harakatlar sodir qilmasliklari;

Qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish (O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish) taqiqlangan moddiy va ma'naviy boyliklarni (predmetlarni) olib kirmasliklari (olib chiqmasliklari);

Xizmat faoliyatiga bog'liq bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Axborot xizmati bilan kelishmagan holda ommaviy axborot vositalari orqali chiqish qilmasliklari, ularga intervyu bermasliklari;

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan hollarda borilgan mamlakatdagi O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasiga murojaat etishlari;

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 342-moddasiga asosan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni (xizmat sirini yoki boshqa sirlarni) tashkil etuvchi ma'lumotlar oshkor qilinganda, yetkazilgan zarar uchun to'liq miqdordagi moddiy javobgarlik ushbu xodim tomonidan qoplanishi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga kelganlaridan keyin Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi yoki uzi ishlayotgan tashkilot (muassasa) rahbarlarini xabardor qilishlari shart.

10. Xodimlar xorijga chiqish masalasi ish beruvchi bilan kelishilgandan so'ng chet davlatga chiqishlari mumkin bo'ladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

11. Xodimlar Yo'riqnoma bilan belgilangan tartibda ruxsat olmasdan xorijga chiqib ketishi holatlari aniqlangan taqdirda, ushbu xodimlarga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etilishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.